OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGI: MILLIY VA GLOBAL MUAMMOLAR

Ilmiy jurnal

2026/2

SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI
BIOKIMYO INSTITUTI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

“OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGI: MILLIY VA GLOBAL MUAMMOLAR” ILMIY JURNALI

(№2026/2)

Ilmiy jurnal O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi OAK Rayosatining 2023-yil 28-fevraldagi 333/5-sonli qarori bilan Biologiya fanlari bo‘yicha “Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxati”ga kiritilgan

Samarqand – 2026

Oziq-ovqat xavfsizligi:Milliy va Global muammolar **2026:1**

Bosh muharrir: professor R.I.Xalmuradov
Bosh muharrir o‘rinbosarlari: professor H.A.Hushvaqtov, akademik B.Z.Zaripov
Mas’ul muharrirlar: b.f.f.d. **(**PhD)., G.G‘. Eshbekova

T A H R I R H A Y ’ A T I

K. Davranov
J. Sattarov
B.Z.Zaripov
Oksoo Han
Xu Gui Qing
Sh. Xudoyberdiyev
K. Toderich
M. Ahmad
S.O‘roqov
T.Rajabov
A.Jabborov
X.Q.Xaydarov
X. Keldiyarov
Z.F.Ismailov
A.Sanaqulov
F.Xalimov
B.Alikulov
F.Kabulova
J.A.Kudratov
N.Rustamova
M.G.Nosirov
X. Jalov
M.Kuziev
F.Ro‘ziyev
F.Xalimov
N. Xasanov
A.Ahmedov
Yu. Ro‘ziyev
A. Xo‘janov
B.Islomov
B. Turayeva
B. Bozorov
S.Narzullayev
G. Eshbekova

“Oziq-ovqat xavfsizligi: milliy va global muammolar”, “Food security: national and global problems”, “Продовольственная безопасность: национальные и глобальные проблемы» nomli ilmiy jurnalning talablari

Maqolaning formati: Microsoft Office Word, Times New Roman, 12 o’lchamda, 1,5 interval, yuqori va pastdan – 2 sm; chapdan – 3 sm; o’ngdan – 1,5 sm, satr boshi (abzats) – 1,0 sm.

Maqolaning tuzilishiga qo’yiladigan asosiy talablar: maqolaning sarlavhasi 12 so’zdan oshmasligi kerak;

muallifning ismi, ota-sining ismi, familiyasi, ikki yoki undan ortiq mualliflar bo’lsa, vergul bilan ajratiladi, ilmiy daraja va ilmiy unvon qisqartirilmagan holatda ko’rsatilishi lozim;

muallif (lar)ning ish joyi quyidagi tartibda taqdim etilishi kerak: bo’lim (kafedra), muassasa (institut), shahar va mamlakat. Shuningdek, muallifning telefon raqami, faks raqami, elektron pochta manzili kel-tirilishi shart;

maqolaning umumiy hajmi 8-12 sahifadan kam bo’lmasligi lozim.

Annotatsiya va kalit so‘zlar barcha maqolalar uchun 3 tilda beriladi. Annotatsiya matnining hajmi 180-200 so‘z atrofida, kalit so‘z (8-10 ta).

Ilmiy maqola matni kirish, mavzuga oid ada-biyotlar tahlili, tadqiqot metodologiyasi, tahlil va natijalar, xulosa hamda adabiyotlar ketma-ketligida yoritiladi. Adabiyotlar ro‘yxati alfavit tartibida rasmiylashtirish kerak.

Grafik materiallar (shu jumladan jadval va rasmlar) tavsifli va oq-qora chop etishga mo‘ljallangan, rang-lar o‘rniga shtrix, chiziq, nuqta va h.k.dan foydalanilgan bo‘lishi kerak.

Formulalar va matematik belgilar formulalar redaktoridan foydalangan holda MS Wordda yoki MathType redaktorida bajarilishi kerak.

2026-yil, 2-son

Bir yilda to‘rt marta chop etiladi

Jurnal 2021-yildan chiqa boshlagan

“Oziq-ovqat xavfsizligi: Milliy va global muammolar” ilmiy jurnali biologiya va qishloq xo’jaligiga oid ilmiy amaliy nashr hisoblanib, O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiya agentligi tomonidan 2021 yil 30-iyulda berilgan №1197-sonli guvohnomasiga binoan nashr etiladi.

Maqolalarning ilmiy saviyasi va keltirilgan ma’lumotlar uchun mualliflar javobgar hisoblanadi.

Texnik muharrirlar:
G.G‘.Eshbekova, A. Sayitqulov

Tahririyat manzili:
Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15-uy.
Tel: (97) 895-37-32, (97) 398-87-17
Faks: (66) 239-15-53
e- mail: devonxona@samdu.uz

MUNDARIJA

Gapparov B. M. POLIGENOMLI DURAGAYLARNING F_1 VA F_2 AVLODLARDA TOLA UZUNLIGI BELGISINING BIOLOGIK VA GENETIK XUSUSIYATLARI…… 3-8

Turaeva B.I., Qutlieva G.J., Shonoxunov T. MIKOTOKSIN HOSIL QILUVCHI FITOPATOGEN MIKROMITSETLARGA QARSHI ANTOGONIST BAKTERIYA SHTAMMLARINI ANIQLASH ……..…….. 9-12

Xamrayev N. U., Yo‘ldasheva Sh. X. KUZGI YUMSHOQ BUG‘DOY NAVLARINING MAKROELEMENT MIQDORINI RENTGEN-FLUORESSENT USULIDA ANIQLASH…… 13-18

Xakimov A. E., Rasulov M. B., Rasulov M.B. KUNGABOQAR URUG‘LARINING MOY VA OQSIL TARKIBI BO‘YICHA MORFOLOGIK VA AGROEKOLOGIK O‘ZGARISHLARNI BAHOLASH……..... 19-23

Gapparov B. M. POLIGENOMLI DURAGAYLARDA KO‘SAK VAZNI BELGISINING IRSIYLANISHI VA O‘ZGARUVCHANLIGI……..... 24-28

Norboyev M.T., Ismailov Z. F., Xurramov A. B. POLIFUNKTSIONAL BIOPREPARAT TARKIBIDAGI KOMPLEKS BAKTERIYA SHTAMMLARINING QULUPNAY (*Albion strawberry*) ILDIZLARIGA INOKULYATSIYASI VA BIOMETRIK KO‘RSATGICHLARI TA’SIRI……..... 29-34

Tohirova O. S., Davronov K. D., Turaeva B. I. YIRIK SHOHLI QORAMOLLAR MIKROBIOMIDAN AJRATIB OLINGAN ISTIQBOLLI BAKTERIYALAR ASOSIDA YARATILGAN BIOLOGIK FAOL QO‘SHIMCHALAR 35-44

Mirzayev U.N., Narzullayev S.N. BO‘Z TUPROQ SHAROITIDA RAPS (Brassica napus L.) SIDERATINI YETISHTIRISH VA TUPROQQA ARALASHTIRISHNING AGROEKOLOGIK AHAMIYATI ……..... 45-49

Мамадиярова Д.У., Азимова С.Б., Саидмуродова З.Г. СПЕЦИФИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПОЛИМОРФИЗМА GLU298ASP (RS1799983) В ГРУППЕ, ОСЛОЖНЕННОЙ АНГИОПАТИЕЙ ПРИ САХАРНОМ ДИАБЕТЕ 2 ТИПА..... 50-53

Xoliqulov Sh.T., Bobobekov I. N., Yakubov T. B. SHO‘RTANGAZKIMYO MAJMUASI ATROFIDAGI OCH TUSLI BO‘Z TUPROQLARDA OG‘IR METALLAR MIQDORI……..... 54-59

Mo‘minov Sh.A. Narzullayev S.B. KOVRAK (*FERULA KUHISTANICA*) NEMATODAFAUNASI VA UNING BIOEKOLOGIK XUSUSIYATLARI 60-65

Shopulatova D. Sh., O‘roqov S. X. ISSIQXONA SHAROITIDA POMIDOR BO‘YINING O’SISHIGA AZOT ME’YORLARINING TA’SIRI..... 66-69

Nurkosimova R., Oltiboyev Sh., Boboqandov N.F. QORAG‘AT (*RIBES* L.) NING BIOEKOLOGIYASI VA DORIVORLIK POTENSIALI…… 70-75

Мадатова М.А., Носиров М.Г. ИСТОРИЯ ИЗУЧЕНИЯ И РАСПРОСТРАНЕНИЕ ВИДОВ РОДА *PEROVSKIA*……..... 76-79

https://doi.org/10.59251/2181-3973.2025.v1.138.1.3943

QORAG‘AT (*RIBES* L.) NING BIOEKOLOGIYASI VA DORIVORLIK POTENSIALI

Nurkosimova R., Oltiboyev Sh., Boboqandov N.F.

Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti

Annotatsiya. Ushbu maqola qoragat (*Ribes* L.) o‘simligining biologik xususiyatlari, kimyoviy tarkibi va dorivorlik ahamiyatini keng qamrovli tahlil qilishga bag‘ishlangan. O‘zbekiston sharoitida qorag‘atning qora, qizil, oltinsimon va oq turlari yetishtirilib, ular xalq tabobati va zamonaviy farmakologiyada keng qo‘llaniladi. Tadqiqotda qorag‘at mevasining kimyoviy tarkibidagi askorbin kislotasi (vitamin C), rutin (vitamin P), karotin (vitamin A), pektin moddalari, organik kislotalar va mineral tuzlarning miqdori hamda ularning organizmga ta’siri o‘rganilgan. Maqolada Qorag‘at turlarining yetishtirish agrotexnikasi, zararkunanda va kasalliklarga qarshi kurash choralari hamda mevaları qayta ishlash texnologiyalari muhokama qilingan.

Kalit so‘zlar: qoragat, *Ribes nigrum* L., askorbin kislotasi, dorivorlik xususiyatlari, agrotexnika, fitoterapiya, biologik faol moddalar, *Ribes aureum*, qizil qorag‘at, *Ribes rubrum*.

Annotation Данная статья посвящена всестороннему анализу биологических свойств, химического состава и лекарственной ценности растения смородины (*Ribes* L.). В Узбекистане выращиваются черные, красные, золотистые и белые сорта смородины, широко используемые в народной медицине и современной фармакологии. В исследовании изучался химический состав плодов смородины, включая аскорбиновую кислоту (витамин С), рутин (витамин Р), каротин (витамин А), пектиновые вещества, органические кислоты и минеральные соли, а также их воздействие на организм. В статье рассматриваются агротехника лекарственного выращивания сортов смородины, меры борьбы с вредителями и болезнями, а также технологии переработки плодов.

Keywords: currant, *Ribes nigrum* L., ascorbic acid, medicinal properties, agrotechnics, phytotherapy, biologically active substances, *Ribes aureum*, red currant, *Ribes rubrum*.

Аннотация. Данная статья посвящена всестороннему анализу биологических свойств, химического состава и лекарственной ценности растения смородины (Ribes L.). В Узбекистане выращиваются черные, красные, золотистые и белые сорта смородины, широко используемые в народной медицине и современной фармакологии. В исследовании изучался химический состав плодов смородины, включая аскорбиновую кислоту (витамин С), рутин (витамин Р), каротин (витамин А), пектиновые вещества, органические кислоты и минеральные соли, а также их воздействие на организм. В статье рассматриваются агротехника лекарственного выращивания сортов смородины, меры борьбы с вредителями и болезнями, а также технологии переработки плодов.

Ключевые слова: смородина, *Ribes nigrum* L., аскорбиновая кислота, лекарственные свойства, агротехника, фитотерапия, биологически активные вещества, *Ribes aureum*, красная смородина, *Ribes rubrum*.

Kirish. Qorag‘at (*Ribes nigrum* L.) dunyoning ko‘plab mamlakatlarida iqtisodiy va tibbiy jihatdan muhim ahamiyatga ega rezavor ekin hisoblanadi. Tarkibidagi biologik faol moddalarning mo‘lligi, xususan C vitamini miqdori bo‘yicha limondan 3-4 marta, olma va uzumdan esa 10-15 marta ko‘p bo‘lganligi sababli qoragat "vitaminlar omborxonasi" deb ataladi (Borovkov, 1997). O‘zbekistonda qorag‘atni yetishtirish va tibbiyotda qo‘llash uzoq tarixga ega. Xalq tabobatida qorag‘at mevalari, barglari va shoxlari yurak-qon tomir kasalliklarini, buyrak, jigar, me’da-ichak yo‘li kasalliklarini davolashda, hamda antiskorbut vosita sifatida keng ishlatib kelingan (Abdullaev va boshq., 2021). Zamonaviy ilmiy tadqiqotlar bu an’anaviy bilimlarni tasdiqlamoqda va qoragatning yangi farmakologik xossalarini ochmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 11-dekabrdagi PQ-4549-son qaroriga muvofiq meva-sabzavotchilik tarmog‘ini rivojlantirish, eksport salohiyatini oshirish va qo‘shilgan qiymat zanjirini yaratish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi etib belgilangan. Ushbu siyosat doirasida qorag‘at plantatsiyalarini kengaytirish va mahsulot sifatini yaxshilash katta ahamiyat kasb etmoqda.

1-jadval

Qora qorag'at turlari va umumiy morfologik tavsifi

Morfologik belgi	Qora qo'rağat	Qizil qo'rağat	Oltin qo'rağat	Izoh
O'simlik turi	Ko'p yillik buta	Ko'p yillik buta	Ko'p yillik buta	Hammasi Ribes avlosiga mansub
Ilmiy nomi	Ribes nigrum L.	Ribes rubrum L.	Ribes aureum Pursh	Qorag‘atdoshlar oilasi
Ildiz tizimi	Popuk ildiz	1,5 m chuqurlikka tushadi	2 m chuqurlikka etadi	Oltin qo'rağat eng chuqur ildizli
Novdalar rangi	Sariq, kulrang chiziqli; keyinchalik jigarrang	Sekin rivojlanadi, bidsiz	Och va to'q yashil, ba'zisi shoxlangan	Qora — o'ziga xos hidli bezli
Barglari	3–5 bo'lakli; pastki tomoni va novdalarida hidli bezlar bor	3–5 bo'lakli yoki butun, ketma-ket	3–5 bo'lakli, qulubnayga o'xshash; kuzda qizil rang	Barcha turlarda 3–5 bo'lakli
Gul kurtak turi	Aralash (vegetativ + meva organlari birgalikda)	Oddiy (bitta kurtakdan barg+novda; boshqasidan faqat gul)	—	Qora qo'rağatda har kurtakdan ikki organ bor
Gul rangi	Qizg'ish	5 ta kichik sarg'ish/ko'kimtir gulbarg	To'q sariq, xushbo'y.	Oltin qo'rağat gullari o'tkir hidli
Meva rangi/shakli	Qora yoki qo'ng'ir; dumaloq, cho'ziq, noksimon yoki yassi	Qizil, to'q/och qizil, pushti; oq nav — sarg'ish	Qora, qizil, to'q sariq, binafsha	Rang navga qarab turlicha
Meva og'irligi	0,6–2,0 g (navga qarab)	Kichik–o'rtacha	Navga qarab	Eng yirik: Do'stlik (6 g)
Meva pishishi	Iyun o'rtasi — iyul	Qora qo'rağat bilan birga	Mart oxiri — iyun 1-o'n kunligi	Oltin qo'rağat eng erta
Ko'payish	Urug', qalamcha, parxish, tupni bo'lish	Qalamcha, parhish, tupni bo'lish, urug'	Qalamcha, tupni bo'lish, urug'	Qalamcha — eng keng usul
Hosil berishi	Ekilgandan 2-yildan	2-yildan	2-yildan	Barcha turlarda bir xil

Biologik xususiyatlari

Qorag‘at Qorag‘atdoshlar oilasi (Grossulariaceae) mansub ko‘p yillik butasimon o‘simlik bo‘lib, ilmiy nomi *Ribes* L. O‘zbekistonda qorag‘atning quyidagi turlari keng tarqalgan: qora qorag‘at (*Ribes nigrum* L.), qizil qorag‘at (Ribes rubrum L.), oltinsimon qorag‘at (*Ribes aureum* Pursh.) va oq qorag‘at (*Ribes niveum* Lindl.).

Qora qorag‘at buta o‘simlik bo‘lib, balandligi 1-1,5 metrgacha yetadi. Ildiz tizimi popuk ko‘rinishida bo‘lib, tuproqning 50-60 sm qatlamida joylashadi. Barglari uch-besh bo‘lakli, pastki tomonida va bir yillik shoxlarida xushbo‘y hidli bezlar mavjud. Bu bezlar tarkibidagi efir moylari qorag‘atning o‘ziga xos hidini beradi (Abdullaev, Abdullaeva, 2021).

Gullash davri – mart oyining oxiri – aprel oyining birinchi o‘n kunligi. Mevasi iyun-iyul oylarida pishadi. Oltinsimon qorag‘at esa boshqa turlarga nisbatan kuchli o‘sishi, issiqqa va qurg‘oqchilikka chidamliligi bilan farqlanadi. Har bir tupidan 8-20 kg meva olish mumkin.



2-rasm. Ribes turlari morfologik ko’rinishi.

Ekologik talablari. Qorag‘at nisbatan soyabargli o‘simlik bo‘lib, yetarli namlik va unumdor tuproqni talab qiladi. Oltinsimon qorag‘at alohida tuproq yoki harorat sharoitini talab qilmaydi va Qoraqalpog‘istonning qorsiz qishi hamda jaziramasiga bardosh bera oladi. U Farg‘ona, Toshkent viloyatlarining turli xil tuproqlarida –yengil qumloq, og‘ir qumloq, sho‘rxok va toshloq yerlarda ham yaxshi o‘sadi. Qora qorag‘at issiq shamoldan himoyalangan, shimoliy va shimoli-g‘arbiy nishaliklarda, pastlik joylarda namlik yetarli bo‘lgan maydonlarda yetishtirish tavsiya etiladi. Qizil qorag‘at esa O‘rta Osiyoning issiq va quruq sharoitida ham o‘sishi mumkin, biroq uning hosildorligi pastroq bo‘ladi.

Kimyoviy tarkibi va dorivorlik xususiyatlari

Qorag‘at mevasi insoniyatga ma’lum bo‘lgan o‘simliklar ichida eng ko‘p C vitamini (askorbin kislotasi) to‘playdigan manbalardan biridir. Abdullaev va Abdullaeva (2021) ma’lumotlariga ko‘ra, qora qorag‘at mevasi tarkibidagi vitamin C miqdori navi, namgarchilik va harorat sharoitiga qarab 86,17 dan 344,66 mg % gacha bo‘lishi mumkin.

Bunga qo‘shimcha ravishda, qorag‘at mevasi tarkibida quyidagi biologik faol moddalar aniqlangan: P vitamini (rutin) – 1081,7 mg % gacha (qizil qorag‘at), A vitamini (karotin) – 8,05 mg% gacha (oltinsimon qorag‘at), B guruhi vitaminlari, K1 vitamini, pektin moddalari – 0,39-1,44%, organik kislotalar – 0,96-3,92%, qand moddalari – 5,0-13,6%, mineral tuzlar – kaliy, fosfor, temir, kalsiy.

Jahon ilmiy adabiyotlarida Brennan (2012) qorag’at mevalarining antosianin miqdori bo‘yicha boshqa rezavor mevalarga nisbatan ancha yuqori ekanligini ko‘rsatib bergan. Xususan, qora qorag‘at 100 g ta’da 250 mg gacha antosianin o‘z ichiga oladi, bu ko‘rsatkich rezavor mevali o‘simliklar ichida eng yuqorilaridan biri hisoblanadi.

1-jadval

Meva kimyoviy tarkibi

Ko'rsatkich	Qora qo'rağat	Qizil qo'rağat	Oltin qo'rağat	Birlik
C vitamini	86,17 – 344,66	26,0 – 76,0	43,2 – 187,0	mg%
P vitamini	Ko'p (mavjud)	1081,7	—	mg%
A (karotin) vitamini	Mavjud	—	8,05 gacha	mg%
B, B_9, K_1 vitaminlar	Mavjud	—	—	—
Qand moddasi	5,0 – 13,6	4,86 – 7,94	6,29 – 13,0	%
Organik kislotalar	0,96 – 3,92	0,589 – 2,350	0,94 – 2,04	%
Pektin moddasi	0,39 – 1,44	—	1,5	%
Xushbo'y moddalar	Bor	Bor	Bor	—

Farmakologik xossalari

Qorag‘at tibbiyotda antiskorbut (skorbut kasalligiga qarshi), immunostimullovchi, antioksidant, yallig‘lanishga qarshi va diyuretik vosita sifatida qo‘llaniladi. Xalq tabobatida yurak xastaligi, buyrak, jigar, taloq, o‘t yo‘llari kasalliklarida, oshqozon yarasi va ichak kasalliklarida qorag‘at mevalarini iste’mol qilish tavsiya etiladi (Abdullaev va boshq., 2021).

Olimlarning o‘tkazgan klinik tadqiqotlarga ko‘ra qorag‘at ekstraktining qon bosimini pasaytirishga, qon tomirlarini kengaytirishga va yurak qisqarishini normallashtirshiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi isbotlanganligini ma’lum qildi. Shuningdek, qorag‘at tarkibidagi polifenollar ko‘z to‘r pardasini himoya qiladi va ko‘rish qobiliyatini yaxshilaydi (Nakaishi va boshqa., 2000).

Qorag‘at mevasi bilan tayyorlangan sharbat tomoq og‘rig‘i, xirilash (bo‘g‘ilish), ko‘k yo‘tal kasalliklarini davolashda ham samarali hisoblanadi. Ushbu xossalari sababli qorag‘at Yevropa farmakopeyasiga kiritilgan bo‘lib, Germaniya, Fransiya, Skandinaviya mamlakatlarida dorivor o‘simlik sifatida rasmiy tan olingan (European Medicines Agency, 2016).

Yetishtirish agrotexnikasi

Qorag‘at ko‘p yillik, buta o‘simlik bo‘lib, bir joyda 15-20 yil meva berishi mumkin. Uni ko‘paytirish quyidagi usullar orqali amalga oshiriladi: bir yillik va yashil novdalarni qalamcha qilish, novdalarni parxish qilib ko‘paytirish va tuplarni bo‘laklarga bo‘lish. Qalamchalar kuzda (uzunligi 18-25 sm, diametri 0,6 sm dan kam emas) tayyorlanib, 70-90 sm chuqurlikda kovlanib, ustiga po‘xol yopilgan transheyalarda saqlanadi.

O‘g‘itlash tizimi: qorag‘at tupining tagiga ekishdan oldin 3-4 kg go‘ngga 10-20 g kaliylik o‘g‘it va 60-100 g superfosfat aralashtirib solinadi. Azot va fosfor o‘g‘itining yillik miqdori sof holda har 2 metr yerga 6-12 grammni tashkil etadi. Erta bahorda o‘simliklarga o‘g‘it miqdorining yarmi solinadi, qolgan yarmi gulashdan keyin va yozda beriladi.

Zararkunanda va kasalliklardan himoya

Qorag‘at plantatsiyalarida asosiy zararkunandalar – o‘rgimchakkana, qorag‘at shisha kapalagi va kuptak kanasi bo‘lib, eng keng tarqalgan kasalliklar – septorioz (oq do‘glanish), vertsiillez so‘lish

hisoblanadi. Oltinsimon qorag‘at navlari umuman kasallik va zararkunandalarga ancha chidamli bo‘lib, bu uning Markaziy Osiyo uchun perspektivli nav sifatida tanilishiga olib kelgan. Qarshi kurash choralari sifatida kolloidli oltingugurtning 1% li eritmasi, bordo suyuqligi, tiovid preparati qo‘llaniladi. Biologik usullar sifatida esa asalarilar orqali gullash jarayonini yaxshilash, himoya polosalari barpo qilish tavsiya etiladi.

O‘zbekistonda yaratilgan navlar

Akademik Mahmud Mirzayev nomidagi O‘zbekiston bog‘dorchilik-uzumchilik va vinochilik ilmiy-tadqiqot institutida seleksiya ishlari natijasida qorag‘atning bir qancha istiqbolli navlari yaratilgan. Ular ichida eng muhimlari: Plotnomyasaya – o‘rtapishar nav, har bir tupdan 4-10 kg meva olish mumkin, issiqa chidamli. O‘zbekistonning barcha viloyatlarida va Qozog‘istonning janubiy viloyatlarida hududlashtirilgan. Uzbekistanskaya krupnoplodnaya – mevasi yirik, shirin-nordon, hosildorligi yuqori (2,5-9,0 kg/tup). Qurg‘oqchilikka chidamli nav. Siyuma – Akademik Mirzayev institutida yaratilgan, dastlabki mevasi juda yirik (5 grammgacha), tarkibida C vitamini 102 mg% ni tashkil etadi. Do‘stlik – Kasalliklar va hasharotlarga chidamli, hosili transportda tashishga yaroqli, desert mazali nav. Ruxshona – ertapishar nav, hosildorligi 5-6 kg/tup, issiq va sovuqqa baquvvant, O‘rta Osiyo cho‘l zonalari uchun istiqbolli. Oltinoy – ertapishar nav (may oyining uchinchi o‘n kunligidan), mevasi shirin-limon hidli, tarkibida qand moddalari 12% gacha, C vitamini 65-80 mg%, karotin 5% gacha.

Xulosa

Tahlil natijalariga ko‘ra, qorag‘at (*Ribes* L.) faqat oziq-ovqat emas, balki muhim dorivor o‘simlik sifatida katta ahamiyatga ega. O‘zbekiston sharoitiga moslashtirilgan navlar – xususan, Plotnomyasaya, Oltinoy, Do‘stlik, Ruxshona – issiqqa va qurg‘oqchilikka bardoshliligi bilan ajralib turadi. Bu navlar faqat mahalliy talabni qondirish uchun emas, balki eksport salohiyatini oshirish uchun ham ishlatilishi mumkin. Zamonaviy farmakologiya va xalq tabobatining birlashishi qorag‘atdan yuqori sifatli preparatlar, funktsional oziq-ovqat mahsulotlari va bioadditiflar tayyorlashga keng imkon beradi. Shu nuqtai nazardan, O‘zbekistonda qorag‘at plantatsiyalarini kengaytirish, seleksiya ishlarini davom ettirish va mevaları qayta ishlash texnologiyalarini takomillashtirish dolzarb masala bo‘lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullaev R.M., Abdullaeva X.R. Qoragat yetishtirish. – Toshkent: Agrobank ATB, Tassvir nashriyot uyi, 2021. – 52 b.

2. Abdullaev R.M. "Toshkent viloyati sharoitida Oltinsimon qorag‘at navlarini o‘rganish". Respublika ilmiy-amaliy anjumani. Toshkent, 2017. – 11-14 b.

3. Abdullaev R.M., Abdullaeva X.R., Kosimov A.A. "Studying the drought-resistance of berry plants". International Journal of Psychosocial Rehabilitation, Vol. 24, Issue 04, 2020. – PP. 3859-3870.

4. Borovkov V.V. Biohimicheskie aspekty sozrevaniya i opadeniya plodov chernoy smorodiny. Avtoref. dis. kand. biol. nauk. – Moskva, 1997. – 25 s.

5. Brennan R.M. Currants and Gooseberries // Temperate Fruit Crop Breeding. Springer, 2008. – P. 177-196.

6. European Medicines Agency (EMA). Assessment Report on Ribes nigrum L., folium. EMA/HMPC/206285/2011. – Amsterdam, 2016.

7. Gopalan C. et al. "Nutritive Value of Indian Foods". National Institute of Nutrition, Indian Council of Medical Research. Hyderabad, 2011.

8. Jakobek L., Seruga M., Seruga B., Novak I., Medvidovic-Kosanovic M. "Phenolic compound composition and antioxidant activity of fruits of Rubus and Ribes species from Croatia". Food Chemistry, 119(2), 2010. – P. 545-554.

9. Moyer R.A. et al. "Anthocyanins, Phenolics and Antioxidant Capacity in Diverse Small Fruits". Journal of Agricultural and Food Chemistry, 50(3), 2002. – P. 519-525.

10. Nakaishi H. et al. "Effects of black currant anthocyanoside intake on dark adaptation and VDT work-induced transient refractive alteration in healthy humans". Alternative Medicine Review, 5(6), 2000. – P. 553-562.

11. Neri M. et al. "Blackcurrant (Ribes nigrum L.) supplementation reduces blood pressure and heart rate in healthy adults". Functional Foods in Health and Disease, 2013.

12. Rechner A.R., Kroner C. "Anthocyanins and colonic metabolism – What is known?". Biofactors, 23(2), 2005. – P. 79-87.

13. Тохтарь Л.А. Биологические особенности красной смородины подрода Ribesia (Berl.) Jancz. при интродукции в условиях Белгородской области: автореф. дис. канд. биол. наук. – Белгород, 2011. – 23 с.

14. Арсеньева Т.В. Особенности биологии и селекционная ценность красной смородины в условиях Северо-Запада Нечерноземья: автореф. дис. канд. с.-х. наук. – Санкт-Петербург, 1992. – 20 с.

15. Гурьянова М.А. и др. "Лечебные свойства чёрной смородины в народной и научной медицине". Фитотерапия, 2015. – С. 44-49.

Maqola Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti professori Xislat Haydarov tahriri ostida nashr qilindi.

Oziq-ovqat xavfsizligi:
Milliy va global muammolar
ilmiy jurnali
2026-yil 2-soni
ISSN (onlayn): 2181-3973

Bosishga ruxsat etildi: 15.06.2026
“Times New Roman” garniturasi